

## NAVOIY ASARLARINING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDA MADANIY KONTEKST VA UNI YETKAZISH MUAMMOLARI

**Mohizarbegim ERGASHEVA**

*TDSHU, arab filologiyasi yoʻnalishi*

*2-bosqich (kunduzgi) arab-ingliz 1-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada Alisher Navoiyning sheʼr va gʻazallarining ingliz va nemis tillariga Yoʻldosh Parda tomonidan qilingan tarjima toʻplami tahlil qilinadi. Navoiy gʻazal va hikmatlarining Yoʻldosh Parda tarjimalarida poetik maʼno va madaniy kontekstning ifodalanishi oʻzaro qiyoslanadi.

**Kalit soʻzlar:** Alisher Navoiy, Yoʻldosh Parda, tarjima, madaniy kontekst, tarjima muammolari, ingliz tili, maʼno yetkazish, adabiy til, sabr, Jannat, Layli, Majnun, maʼshuq, sharqona iboralar, diniy tushunchalar.

**Abstract:** This scientific article analyzes the collection of translations of Alisher Navoi's poems and ghazals into English and German by Yuldash Parda. The expression of poetic meaning and cultural context in Yuldash Parda's translations of Navoi's ghazals and proverbs is compared.

**Keywords:** Alisher Navoi, Yuldash Parda, translation, cultural context, translation problems, English language, conveying meaning, literary language, patience, Paradise, Layla, Majnun, lover, oriental expressions, religious concepts.

**Аннотация:** В данной научной статье анализируется сборник переводов поэм и газелей Алишера Навои на английский и немецкий языки Юлдаша Парды. Сравнивается выражение поэтического смысла и культурного контекста в переводах Юлдаша Парды газелей и пословиц Навои.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, Юлдаш Парда, перевод, культурный контекст, проблемы перевода, английский язык, передача смысла, литературный язык, терпение, Рай, Лейла, Меджнун, возлюбленный, восточные выражения, религиозные концепции.

Alisher Navoiy turkiy adabiyotning zabardast namoyandasi sifatida jahon adabiyoti tarixida alohida o‘rin egallaydi. Uning boy badiiy merosi nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun insoniyat uchun bebaho madaniy boylik hisoblanadi. Navoiy asarlarida ifodalangan gumanistik g‘oyalar, axloqiy mezonlar va go‘zallik haqidagi qarashlar bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan.

Globalizatsiya sharoitida Alisher Navoiy merosini xorijiy auditoriyaga yetkazish dolzarb masalalardan biridir. Xususan, uning asarlarini ingliz tiliga tarjima qilish, nafaqat jahon o‘quvchilarini buyuk mutafakkir bilan tanishtirish, balki turkiy adabiyotning yuksak taraqqiyotini namoyish etish uchun ham muhimdir. Biroq tarjima jarayonida madaniy kontekstni to‘laqonli ifoda etish, milliy obraz va tushunchalarni to‘g‘ri yetkazish kabi muammolar yuzaga chiqadi. Ushbu maqola ana shu jarayonni tahlil qilishga, tarjimalardagi asosiy qiyinchiliklarni ochib berishga va madaniy kontekstni yetkazishdagi yondashuvlarni ko‘rib chiqishga qaratilgan.

Alisher Navoiy asarlari nafaqat o‘zbek, balki butun turkiy xalqlar adabiyoti va madaniy merosida beqiyos o‘rin tutadi. Shu bois, uning asarlari qadimdan turli xalqlar tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganilgan va tarjima qilingan. Tarjimalar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Navoiy asarlari dastlab fors-tojik muhitida qiziqish uyg‘otgan. Ayniqsa, uning “Xamsa”siga kirgan dostonlari fors tiliga tarjima qilinib, Eron, Afg‘oniston va Tojikistonda keng tarqalgan.

Yevropa ilmiy muhitida esa Navoiy ijodiga ilk qadamlar 19-asrda qo‘yila boshlandi. Nemis, fransuz va rus sharqshunoslari uning asarlarini o‘rganishga kirishdilar. 20-asr boshlaridan boshlab esa Navoiy asarlari rus tiliga muntazam tarjima qilina boshladi. Xususan, “Lison ut-tayr”, “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin” kabi

asarlar rus tilidagi tarjimalari orqali keng jamoatchilikka yetib bordi. Sovet davrida Navoiy asarlari o'zbek tilining zamonaviy adabiy shakliga moslab nashr qilindi va boshqa ittifoq xalqlari tillariga ham tarjima qilina boshlandi. Bugungi kunga kelib, Navoiy ijodi ingliz, nemis, fransuz, arab, turk, eron, xitoy va boshqa ko'plab tillarga tarjima qilinib, dunyo adabiy jamoatchiligida o'z o'rnini mustahkamlab bormoqda. Ushbu tarjimalar nafaqat Navoiy asarlarining badiiy saviyasini, balki u orqali o'zbek xalqining madaniy tafakkuri, ma'naviy olami va estetik didini ham namoyon etadi. Tarjimalarning sifati, talqini va uslubidagi farqlar esa Navoiy merosini chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Ana shunday tarjima asarlardan biri Yo'ldosh Parda tomonidan tuzilgan „Ummondan durlar“ („Pearls from the ocean“) asaridir. Kitob uch qismga bo'lingan va birinchi qism o'zbek tilida, ikkinchi qism nemis tilida, uchinchi esa ingliz tilida keltirilgan. To'plam Navoiyning „Qizil, sorig', yashil...“ radifli g'azali bilan boshlanadi. Ingliz tilida „Red, yellow and green...“ deb berilgan. Bu yerda odatiy tarjima kuzatiladi. Ammo g'azal mazmuniga nazar tashlansa, undagi so'z o'yinlari, turli qochirimlar, badiiy san'atlar asl tilida qanchalar mahorat bilan ishlatilgan-u, tarjimada o'zgarishga yuz tutganligi seziladi:

Xil'atin to aylamish jonon qizil, sorig', yashil,

Shu'layi ohim chiqar har yon qizil, sorig', yashil.

Gulshan ettim ishq sahrosin samumi ohdin,

Kim, esar ul dasht aro har yon qizil, sorig', yashil.

Shishadek ko'nglumdadur gulzori husnung yodidin,

Tobdonning aksidek alvon qizil, sorig', yashil.

Oraz-u xoling bila xatting xayolidin erur,

Ko'zlarimning ollida davron qizil, sorig', yashil.

La'lgun may tutqil oltun jom birla sabzada,

Kim, bulardin yaxshi yo'q imkon qizil, sorig', yashil.

Faqr aro birranglik dushvor erur behad valek

Xirqada tikmak erur oson qizil, sorig', yashil.

Ey Navoiy, oltun-u shingarf-u zangor istama,

Bo'ldi nazming rangidin devon qizil, sorig', yashil.

Endi esa to'g'ridan to'g'ri ingliz tilidagi tarjimasini ko'ramiz:

When my beauty decks herself in red, yellow and green

My sighs go flying like sparks of red, yellow and green.

I have cultivated the desert of love so the hot breath of my sighs

Has turned the barrenness into a flowering red, yellow and green.

When I recall your grace, the mirror of my soul reflects

As from the strained glass mosaic of my window the colors red, yellow and green...

The very thought of your face, of the dark shadow above your lip

Makes the world sparkle a bright red, yellow and green

Poor red wine into a golden gablet in Spring

For where else are combined in such harmony the colors red, yellow and green

The poor can hardly afford clothing even of a single shade,

Still they can easily sew into their robes stripes of red, yellow and green.

I say, Navoiy seek no longer for brilliant gold, scarlet and green colors



For the flowers of your poetry have tinged this diwan red, yellow and green.<sup>1</sup>

Alisher Navoiy g‘azalida uchraydigan “la’l”, “sabza”, “shingarf”, “zangor”, “faqr”, “xirqada tikmak” kabi so‘zlar tarixiy va diniy-ma’naviy kontekstga ega bo‘lib, ularni boshqa madaniyat vakillariga to‘liq anglatish oson emas. Masalan, “xirqada tikmak” iborasi tasavvufiy ramz bo‘lib, faqirlikda rang-baranglik yaratish, ya’ni ruhiy go‘zallikni ta’riflaydi. Ingliz tilidagi tarjimada bu iboraning tashqi ma’nosi berilgan bo‘lsa-da, uning chuqur tasavvufiy mohiyati to‘liq ifodalanmagan. Navoiy g‘azalida ranglar – “qizil, sorig‘, yashil” – nafaqat tashqi go‘zallikni, balki ichki holat, muhabbat, ishtiyoq, ruhiy yangilanish kabi tushunchalarni bildiradi. Sharq she’riyatida bu ranglar ma’naviy ramzga ega. Tarjimada esa bu ranglar oddiy tasvir sifatida berilgan: “red, yellow and green” — ularning semantik og‘irligi yo‘qolgandek. Bundan tashqari, “sabza” (bahor ramzi), “la’l” (yuksak qadrlanuvchi la’liyoq) singari so‘zlar kontekstda poetik obraz bo‘lsa-da, tarjimada ular oddiy sharob va qadah sifatida talqin etilgan.

Ushbu g‘azal o‘zbek-turkiy aruz vazniga asoslangan bo‘lib, ritm, qofiya va ohang uyg‘unligi bilan o‘quvchida estetik zavq uyg‘otadi. Ingliz tilidagi tarjimada esa bu musiqiylik deyarli saqlanmagan. She’rning ruhiy holati, metaforalari, va ichki ohangi faqat qisman uzatilgan. Bu tarjimaning asliyatdagi ruhni to‘liq yetkaza olmasligidan dalolat beradi. Poeziyada “ma’no” bilan birga “his” ham yetkazilishi lozim – bu esa aynan madaniy va poetik kontekstni chuqur tushungan tarjimonlargagina nasib etadi.

G‘azal misolida tarjimon bir vaqtning o‘zida ikki yondashuvdan foydalanishga harakat qilgan: ayrim misralarda to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjimaga murojaat qilingan bo‘lsa (“red, yellow and green” takrorlanishi), ayrim joylarda esa adaptatsiyaga (ma’no va ruhni moslashtirishga) urinish ko‘riladi. Masalan, “Ko‘zlarimning ollida davron qizil, sorig‘, yashil” misrasi tarjimada “Makes the world sparkle a bright red, yellow and green” tarzida berilgan — bu to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima emas, balki poetik obrazga yaqinlashtirilgan talqindir. Ammo bu muvozanatni saqlash oson emas. Juda literal

<sup>1</sup> Y.Parda. Ummondan durlar. T., 2000.

tarjima she'ni g'ayritabiiy va noaniq qiladi, moslashtirish esa asl poetik tafakkurni yo'qotishi mumkin. Tarjimon she'rdagi har bir obraz, ramz va ritmik ifodaning madaniy qatlamini chuqur anglab, uni manzilli auditoriyaga mos tarzda uzatishi lozim.

Quyidagi Navoiyning hikmatli so'zlari ham ingliz tiliga tarjima qilingan. Unda ham farqlar va o'xshashliklar yaqqol ko'zga tashlanadi:

Ilm o'qub amal qilmag'on, qariz qazib tuxum solmag'ong'a o'xshar.

He, who knows knowledge, but applies not, are like those who plow the land, and plant seeds not.

\* \* \*

Har ranjdin so'ng bo'lur rohate,

Taabsiz muyassar emas ishrate.

After each pain there will be pleasure,

Without pain there be no pleasure.

\* \* \*

Har nekim bebaqodur, anga ko'ngil bog'lamoq xatodur.

Loving what is not lasting is a mistake.<sup>2</sup>

Navoiy hikmatlarining ingliz tiliga tarjimasida tarjimon oldida ikki asosiy yo'l turadi: madaniy moslashtirish (domestikatsiya) va begonalashtirish (foreignizatsiya). Birinchi yondashuvda asliyatdagi g'oyani o'quvchiga tushunarli, yaqin shaklda yetkazish maqsad qilinadi, ikkinchisida esa asarning milliy va madaniy o'ziga xosligi saqlanib, begona madaniyatga xos unsurlar ataylab o'zgarishsiz qoldiriladi. Masalan, "Ilm o'qub amal qilmag'on, qariz qazib tuxum solmag'ong'a o'xshar" hikmatida

<sup>2</sup> Y.Parda. Ummondan durlar. T., 2000.

Navoiy xalq hayotiga yaqin, dehqonchilikka oid metaforani ishlatgan. Tarjimada bu jumla “He, who knows knowledge, but applies not, are like those who plow the land, and plant seeds not” tarzida berilgan bo‘lib, begonalashtirish uslubidan foydalanilgan. Chunki “qariz qazib tuxum solmoq” – bu O‘zbek mentalitetiga xos obraz bo‘lib, uni inglizcha “plant seeds” bilan berish orqali ma’no saqlanadi, lekin milliy ifoda yo‘qoladi. Aksincha, “Har ranjdin so‘ng bo‘lur rohate, Taabsiz muyassar emas ishrate” hikmatining tarjimasida madaniy moslashtirishga yaqinlashilgan: “After each pain there will be pleasure, Without pain there be no pleasure.” Bu misralarda hayotiy falsafa umumlashgan va ingliz o‘quvchisiga mantiqan yaqinlashtirilgan.

Demak, tarjima jarayonida bu ikki yondashuvni muvozanatda qo‘llash hikmatlarning ruhini saqlashda muhim omildir. Navoiy asarlari yuksak uslubiy boylik va turkiy ifoda shakllari bilan ajralib turadi. U tilshunoslikda nozik sanalgan qiyoslar, xalqona iboralar, ramziy ma’nolar orqali chuqur ma’naviy g‘oyalarni bildiradi. Biroq bu boylikni ingliz tiliga to‘liq ko‘chirishda qiyinchiliklar yuzaga chiqadi. Masalan, “Har nekim bebaqodur, anga ko‘ngil bog‘lamoq xatodur” hikmatida “bebaqo” (ya’ni, barqaror emas, o‘tkinchi) so‘zi faqat bir so‘z bilan emas, balki butun bir tushuncha orqali ifodalangan. Tarjimada esa bu “Loving what is not lasting is a mistake” tarzida berilgan. Garchi umumiy ma’no uzatilgan bo‘lsa-da, asl o‘zbekcha iboraning emotsional va ruhiy ohangi yo‘qolgan. Bu Navoiy tilining o‘ziga xosligiga – chuqurlik, qisqa va obrazli ifoda kuchiga – ishora qiladi. Shuningdek, Navoiy she’rlarida so‘zlar ko‘p ma’nolilik (polisemiya) bilan ajralib turadi. “Ilm”, “amal”, “taab”, “ishrat” singari so‘zlar diniy, falsafiy va hayotiy darajalarda bir vaqtning o‘zida ishlatiladi. Ingliz tilida esa ularning har biri ko‘pincha faqat bitta qatlamda talqin qilinadi. Alisher Navoiy o‘zbek-turkiy tilining sinonimik imkoniyatlarini keng ishlatgan. Masalan, “ilm”, “bilim”, “ma’rifat”, “fahm” so‘zlari bir-biriga yaqin, lekin nozik semantik farqlarga ega. Tarjimada bunday noziklikni saqlash oson emas.

“Ilm o‘qub amal qilmag‘on...” misolida “ilm” va “amal” so‘zlari muqobil so‘zlar emas – biri nazariy bilim, ikkinchisi esa amaliyot ma’nosini anglatadi. Ingliz tilida esa

“knowledge” va “practice” yoki “deed” kabi soʻzlar bilan berilishi mumkin, biroq ularning ham koʻlamida farq bor. Shuningdek, “taab” va “rohat”, “ishrat” kabi ziddiy soʻzlar arabcha-qadimiy leksik qatlamdan olingan boʻlib, ularni aynan tarjima qilish emas, balki talqin qilish zarur boʻladi. Shu sababli, Navoiy asarlarini tarjima qilishda lugʻaviy boylik va sinonimiya muammolarini chuqur til va madaniyatlararo kompetensiya orqali yengish mumkin.

Navoiy asarlarida keng uchraydigan tazmin (iqtibos keltirish), tajnis (soʻz oʻyini) va istiʼora (koʻchma maʼno) kabi badiiy uslublar tarjimada jiddiy muammolar tugʻdiradi. Masalan, tajnis oʻzbek tilida fonetik yaqinlik orqali maʼno oʻyini yaratadi, bu esa ingliz tilida ayni tovush yoki maʼno muvofiqligi mavjud boʻlmasa yoʻqoladi. Istiʼoraviy ifodalar esa madaniy asosga ega boʻlib, tarjimada kontekstidan uzilib qolishi mumkin. Bu uslublarning mazmuniy va estetik yukini toʻliq yetkazish uchun tarjimondan til va madaniyat chuqur bilimi talab etiladi.

Tarjimon faqat til bilimiga emas, balki ikki madaniyatni chuqur anglay olishga ham ega boʻlishi kerak. Navoiy asarlaridagi diniy, tarixiy va falsafiy qatlamlar faqat madaniyatlararo kompetensiya orqali toʻgʻri talqin qilinadi. Navoiy merosini toʻliq anglash uchun izohli tarjimalar va ikki tilli nashrlar zarur. Annotatsiyalar orqali badiiy uslub, tarixiy sharoit va kontekst oʻquvchiga tushunarli tarzda ochib beriladi. Adabiyotshunos, tarixchi va islomshunoslar bilan hamkorlikda tarjima qilish – matnni chuqur tahlil qilish, uning maʼnaviy va ilmiy qatlamlarini yoʻqotmaslikka xizmat qiladi. Bu uslub ilmiy asoslangan tarjima uchun muhimdir.

Xulosa: Navoiy merosini global miqyosda tanitish faqat sifatli va kontekstual tarjimalar orqali mumkin. Madaniy kontekstni saqlagan holda amalga oshirilgan tarjimalar oʻzbek adabiyotining noyob durdonalarini dunyoga yetkazadi. Tarjimada yondashuvlarning muvozanatli qoʻllanilishi esa Navoiy soʻzining jozibasini asrab qolishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**



1. Yo'ldosh Parda. Ummondan durlar. T., 2000.
2. M.Qodirova. "Alisher Navoiy asarlarining ingliz tiliga tarjimasida poetik ifoda va mazmun uyg'unligi." Filologiya masalalari. T., 2018.
3. D.Karimova. "Navoiy asarlarining tarjimasida madaniy realiyalarni yetkazish." O'zbek tili va adabiyoti. T., 2020.
4. G.Karimov. Navoiy she'riyati va tarjima muammolari.